

ISSN 2010-9075

БЕРДАҚ атындағы ҚАРАҚАЛПАҚ
МӘМЛЕКЕТЛИК УНИВЕРСИТЕТИНИҢ

ХАБАРШЫСЫ

БЕРДАҚ номидаги ҚОРАҚАЛПОҚ
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ

АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК

КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА

1

НӨКИС 2024 НУКУС

sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi" deb belgilab qo'yildi. Ushbu normani kiritishda birinchi o'rinda xalqimizdan kelib tushgan takliflar va shu bilan birga xalqaro normalar ham hisobga olingan. Ya'ni, ushbu modda "Miranda qoidasi"ni o'zida aks ettirgan. Miranda qoidasining mazmuni shundan iboratki, jinoyatda gumon qilinib ushlangan shaxsga nisbatan tegishli idora xodimlari tomonidan bosim o'tkazilishini istisno qiladi. Bu esa inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari – oliy qadriyat degan ezgu tamoyilni amaliyotda keng tadbiiq etishga imkoniyat beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 29-moddasiga asosan, "Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega". Har qanday shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan chaqirilganda yoki ushlanganda bir oz o'zini yo'qotib qo'yishi, esankirashi bor gap. Shunday vaziyatda uning huquqlari buzilishini oldini olish maqsadida advokat yordamidan foydalanishni ta'minlash muhim o'rin tutadi. Bunday vaziyatda advokat haqiqiy ma'noda ko'makchi, himoyachi sifatida shaxsga huquqiy yordam ko'rsatishi kerak. Konstitutsiyada shaxs ushlanganida uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqining alohida belgilanishi unga nisbatan noqonuniy yoki asossiz ayblov qo'yilishidan, turli bosimlardan himoya qiladi. Shuningdek, shaxs o'z tanloviga ko'ra, ya'ni istasa, advokat yordamidan foydalanadi, istamasa, bunday yordamdan voz kechishi mumkin. Bordini, bunga imkoni bo'lmasa, davlat hisobidan advokat ta'minlanishi mumkin. Mazkur qoida fuqarolarimizning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirishga, ularga nisbatan turli noqonuniy harakatlar sodir etilishini va asossiz ayb qo'yilishini oldini olishga xizmat qiladi. Bosh qomusimizda ta'kidlangan demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlatda fuqarolik jamiyatini barpo etishda Konstitutsiyaning ahamiyati beqiyosdir. Uning ahamiyati haqidagi barcha fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mustaqil davlatchilik asoslari va yangi O'zbekistonni barpo etishda mamlakatimizning butun huquqiy tizimida va barcha sohalarida keng qamrovli islohotlarni yanada jadal suratlarda va muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yangi Qomusimiz orqali fuqarolarimiz ongida yuz berayotgan o'zgarishlar yurtimiz taraqqiyoti yo'lida qudratli kuch sifatida xizmat qiladi. Ko'p bora ta'kidlanganidek, mazkur konstitutsiya xalqimiz erk-irodasining huquqiy mahsulidir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, tom ma'noda o'z ijod mahsulimiz hisoblangan Konstitutsiyamizni hurmat qilish, uning talablariga amal qilish har birimizning burchimizdir. Unga amal qilish esa mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo'shish va adolatli jamiyat barpo etishga xizmat qilish demakdir.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. –T.: O'zbekiston, 1996. -170b.
2. Konstitutsiyadagi yangi normalar va ularning tahlili. F.Q.Qutlimuratov, H.A.Akmalov. (Metodik qo'llanma) -Nukus; 2023. -84b.
3. Inson huquqlari. A.R.Mo'minov, M.A.Tillaboyev. Darslik. Ikkinchi nashr. –T.: Adolat, 2013. -290b.
4. Akmalov Hamid Akmal o'g'li. (2023, Aprel). Yangilanayotgan konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi islohotlar. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2|2181-3035|№22.
5. L.Yugay. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada qiyoslashning ta'qiqlanishi kafolatlari mustahkamlanmoqda. "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" yagona milliy portali. URL: <https://meningkonstitutsiyam.uz> (ko'rilgan sana: 21.11.2023-y.)
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri. -T.: "O'zbekiston" 2013.

Konstitutsiyadagi yangi normalar va ularning tahlili

Annotatsiya: Barchamizga ma'lum, joriy yilning 1-may sanasidan mamlakatimizda xalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya kuchga kirdi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan Qomusimizga kiritilgan yangi moddalar, normalar va ularning tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: demokratik davlat, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, inson huquqlari.

Новые нормы в конституции и его анализ

Аннотация: Всем нам известно, что с 1 мая текущего года в нашей стране вступила в силу Конституция в новой редакции, принятая на основе всенародного референдума. В данной статье изложены новые статьи, нормы и их анализ, внесенные в Конституцию Республики Узбекистан в связи с принятием новой редакции.

Ключевые слова: демократическое государство, правовое государство, социальное государство, права человека.

New norms in the constitution and their analysis

Abstract: As we all know, with the adoption of the new amendment to the Constitution through a nationwide referendum on May 1 of the current year, significant changes have been introduced in our country. This article highlights the newly added provisions, norms, and their analysis in relation to the acceptance of the revised Constitution of the Republic of Uzbekistan.

Key words: democratic state, rule of law, social state, human rights.

ABU RAYHON BERUNIYNING JAMIYAT VA DAVLAT HAQIDAGI IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI

Tog'ayev N. E.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Ajdodlarimizning o'tmishi, milliy va diniy an'analarimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, demokratik, adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy

sohalaridagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma’naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonparvar, vatanparvar, millatparvar, ajdodlarga munosib xalq bo‘lishdan iboratdir. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bizning qanday buyuk va shonli o‘tmishimiz, qanday ulug‘ ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz” [1, 191] – deb ta’kidlab o‘tadilar. Xalqimizning uzoq o‘tmish tarixi shundan dalolat beradiki, insoniyatning ma’naviy kamolatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan boy ma’naviy-madaniy meros va buyuk qadriyatlar sohibimiz. Bizning donishmand ajdodlarimizning barchasi ilm-ma’rifatni ulug‘laganlar, insonni axloqli, tarbiyali bo‘lishga, Vatanni sevrishga, insonparvar hamda millatparvar bo‘lishga undaganlar.

Bizga tarixan ma’lumki, qomusiy tafakkur egalari hisoblangan Markaziy Osiyolik mutafakkirlarimiz ilm-fanning barcha sohalarida olib borgan tadqiqot natijalaridan hozirgi zamon fani va texnikasi keng sur’atlarda foydalanib kelmoqda. Mutafakkirlarimizning ilmiy merosi va tengsiz asarlari nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi. Mutafakkir olimlarning ilmu-fan siru-asrorlarini o‘rganish, hunar egasi bo‘lish borasidagi qarashlari umumbashariy tamaddunining o‘chmas va ardoqli qadriyatlaridan hisoblanib, bu borada eng qadimgi davrlarda shakllangan hayotiy tajribalari asosida zamonamiz tafakkuri yuzaga kelgan. “Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘inoniy, Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy kabi ko‘plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan... Ularning hayoti va ma’naviy merosini keng o‘rganish va hayotga tadbiiq etishda bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda” [2].

Mana shunday buyuk donishmand qomusiy olim va mutafakkirimizdan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048 yil)dir. U ilm-fanning deyarli barcha sohalar bilan shug‘ullanib, Yaqin va O‘rta Sharqning boy fan-madaniyatini puxta o‘rganadi. Qadimgi yunon mumtoz ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik alloma bo‘lib yetishdi. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarida samarali ijod qilib, hozirgi paytda olimning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Ma’danshunoslik”, “Mas’ud qonuni”, “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar”, “Ibn Sino bilan savol-javoblari” va boshqa asarlari nashr etilib, turli tillarga tarjima qilingan. Beruniy nihoyatda sermaxsul, ilmiy faoliyati ko‘p qirrali va boy qomusiy olimdir. Akademik I.Y.Kravakovskiy so‘zi bilan aytganda, u qiziqqan sohalarini ko‘rib chiqishdan ko‘ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqqan osonroqdir.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari jamiyat va uning vujudga kelishi, shakllanishi haqida ko‘pgina asarlar yozib qoldirgan. Shu jumladan, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosida ham jamiyatning vujudga kelishi va evolyusiyasining tahlil etilganini ko‘rishimiz mumkin. Beruniy jamiyat tuzilishining unsurlari orasidagi munosabat va aloqalarni ko‘rsatib, ularni ijtimoiy hayotdagi ro‘lini aniqlagan. U o‘z davrining farzandi sifatida davlat tuzumining qonun-qoidalarini yoqladi. Ammo shu bilan birga hukmdorga aql va adolat xos bo‘lishi kerak, degan fikrga keladi. Shuningdek, axloqiy meyorlarga zid xatti-harakatlarni qoralaydi. U hukmdorlar bo‘lishi zarurligini ham, hokimiyatning merosiylik tamoyilini ham, xususiyl mulkning, shu jumladan, yer mulkchiligining muqarrarligini ham tan olgan. Biroq Beruniyning fikricha, hukmdor zarur sifatlariga, ya’ni adolatga va aqlga ega bo‘lishi zarur. Beruniy har qanday zo‘ravonlik, zolimlik, shafqatsizlik, milliy, irqiy va diniy tengsizlikning dushmani deb bilgan.

Beruniy jamiyat haqidagi qarashlarida o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatidan kelib chiqib, davlatni boshqarishda vorisiylk masalasini oldingi o‘ringa qo‘ygani quyidagi fikrlaridan bilib olish mumkin: “agar podshoh buyruqni berishda milliy va diniy biron tomonga asoslansa, bir qorindan bir vaqtda ikki bola tug‘ilganidek, podshohlik va din ishi birlashib buyruq to‘liq va tugal bo‘ladi, to‘liqlikning narigi tomonida ko‘zda tutiladigan g‘oya va maqsad yo‘q” [3, 88]. Bundan ko‘rinadiki, davlatni boshqarishda din va dunyoviy ishlar qonun asosida mutanosib bo‘lishi kerakligi aytilmoqda. Akademik I.M.Mo‘minov Beruniyning ijtimoiy-falsafiy, jamiyat va davlat haqidagi qarashlariga alohida e’tibor qaratib, uning “Mineralogiya” asaridagi quyidagi fikrlarini keltirgan edi: “Olis Mag‘ribdagi shaharlardan birining aholisi haqida naql qiladilarkim, zodagonlar va yer egalari mazkur shaharni navbatma-navbat boshqarar ekan. Kimga navbat kelsa, o‘sha uch oy davomida hokimlik vazifasini ado etarkan. Muddat tugagach, o‘z ixtiyori bilan hokimlikdan voz kechib, og‘ir vazifadan qutulgani uchun el-yurtga xayr-sadaqa ulashar ekan. Buning boisi shundaki, boshqarish va boshchilik qilish bu zo‘ravonlar tomonidan jabrlangan kishilarning haq-huquqlarini tiklash yo‘li bilan fuqaro halovatini ta’minlash niyatida o‘z halovatidan mahrum bo‘lish demakdir” [4, 42]. Ya’ni Beruniy davlatni demokratiya asosida boshqarish mumkinligini ko‘rsatishga harakat qilgan.

Aksariyat o‘rta asr mutafakkirlari o‘zlarining eng ezgu orzu-umidlarini adolatli shoh zimmasiga yuklaydilar. Xukmdorlarni insof va adolatga da’vat etdilar, shu yo‘l bilan mamlakatda adolatli va tenglik o‘rnatilishi, insoniyatni zulm va istibdoddan xalos etmoqchi bo‘ladilar. Ularning bu fikrlariga Beruniy ham qo‘shiladi. “Inson bunday yuqori mansabga o‘zining kelib chiqishi bilan taaluqli bo‘lmasa ham uning urug‘ining qadimiyligiga qarab emas, balki ko‘rsatgan xizmatlari evaziga ko‘tariladi” [5, 14]. Alloma jamiyat taraqqiyotida to‘sqinlik qiluvchi g‘oyalarga qarshi chiqadi. Ilg‘or fikrlarni, ilmlarni boshqa qarashlar bilan solishtirib halqning e’tiborini haqiqatdan chetga tortuvchi kuchlar ham mavjud. Ular turli yolg‘onlar va mish-mishlar bilan ma’lum ma’noda jamiyatni o‘z orqasidan ergashtirishadi. Bunday kuchlar va g‘oyalardan jamiyatni tozalab turish kerak degan nazariyani ilgari suradi.

Beruniyning ison va jamiyatning vujudga kelishidagi bunday ratsionalistik qarashlari tarix sotsiologiyasining o‘ziga xos tamoyillarini yaratishga olib keladi. Chunki Beruniy avvalo insoniyat tarixiga ijtimoiy naqta nazaridan baho beradi va yondashadi. Uning umuminsoniy, umumiylik xususiyatlarini ochib berish bilan birga har bir mamalakati, har bir xalqning tarixi alohida o‘ziga xos tarix ekanligini, shuning uchun ham ularni taqqoslab analiz qilish mumkin ekanligini yozadi. Uning o‘z vatani tarixiga bo‘lgan munosabati vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan yanada boyib ketadi. Chunki tarixiylik, o‘z xalqi tarixini bilish, avvalo shu shaxsning vatanparvarlik darajasidan kelib chiqadi.

Barcha mamlakatlarga tarqalgan xalqlardan har birining alohida tarixi bor, uning podshohlari, payg'ambarlari, bor. Shu tarix yordami bilan muamomala ishlarida hamda vaqtlarni bilish xususida kerakli muddatlarni belgilaydi va ularni tarix boshqa xalqlardan ajratadi. "Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashuri abadiyatning, kishilikning, insoniyatning boshlanishidir"[6, 30]. Beruniyning jamiyatda bo'lgan qarashlarini ayrim g'arb olimlari obektivistik yoki konservativ qarashlar deb atashgan. Ovrupa Sharqshunoslik adabiyotida, ayniqsa, Beruniyning ilmiy me'rosini birinchilar qatori tadqiq qilgan olim E.Zahauning Beruniy ijtimoiy qarashlariga bergan bahosi birmuncha e'tiborlidir. E.Zaxau "Hindiston"ning inglizcha tarjimasiga yozgan so'z boshida garchan Beruniy olim va mutafakkir sifatida yuqori qo'yilgan bo'lsada, lekin uning jamiyatga bo'lgan qarashlarini "konservativ" deb atagan.

Beruniyning ijtimoiy qarashlari uning siyosiy konsepsiyasi mohiyatidan kelib chiqadi. Bu holatni biz Beruniyning o'z davridagi faol siyosiy oqimlari bo'lgan hindlar va qarmatlarning ta'sirida bo'lganligidan bilib olsak bo'ladi. Beruniy ijtimoiy-siyosiy qarashlari tizimida bu oqimlar nufuzli o'rin egallash bilan birgalikda, u o'zining "Fixrist" asarida yozganidek, yoshligidan boshlab va butun hayoti davomida islom tomonidan qattiq ta'qib ostiga olingan diniy ta'limotlar, ayniqsa moniychilikning man etilgan yodgorliklarini izlagan va o'rgangan. Beruniy ularning ta'limotini "Oq kiyimlilar" ta'limoti, deb ta'riflab, unga atab katta asar yozgan. Lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan. "Idora qilish va boshqarishning mohiyati, balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo'riqlash yo'lida badan charchasidan iboratdir" [5, 31-32]. Abu Rayxon Beruniy sotsiologiyasining xususiyati shundaki, u asosiy masalalar bo'yicha chuqur fikrlarni o'rta tashlaydi: birovni zo'rlik bilan ishlatishga qarshi erkin mehnatni kuylash, zolim shohlarni qoralash, odil shohlarni quvvatlash boshqarishning demokratik prinsiplarini madh etish, shaharlar, hunarlar, ayirboshlash, savdo, narx-navo shular jumlasidandir. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladi, Beruniyning bu qarashlari quruq orzu bo'lmagan, aksincha u antik davridagi Afina va O'rta asrlardagi Italiya shaharlarining davlat tuzulishi, ularning siyosati va davlatni boshqarishdagi demokratik tamoyillarini yaxshi bilgan va tushungan. Shuning uchun ham, u odil jamiyatning odil shohi va uning odil siyosati haqida gapirganda boshqarishning xuddi anashu davlatlarga xos bo'lgan tamoyillarini nazarda tutgan.

Beruniy fikricha, hayotda tartib o'rnatilishi uchun jamiyat shunday tuzulish lozimki, u kishilarning ehtiyojini qondirishga yordam bersin. Buning uchun jamiyatdagi odillikka rioya qilishni nazorat qiladigan hokimlik mansabi tayinlanishi zarur. Buni ham Beruniy xudo yordamiga tayanmay hal qilishga harakat qilgan. Bunda faqat odamlarning o'zaro kelishishlarini va ulardan eng ariziydiganiga erkin bo'ysinishlari lozimligini ta'kidlaydi: "Boshqa xalqlarning afsonalari ham ularning donishmandligidan kelib chiqishi shunday bo'lib, ular odamlarni erkin bo'ysinishi uchun birlashtiradi" [5, 27]. Beruniy o'zining orzu-umidlarini odil hokimlarga bog'lagan bo'lsa-da, lekin ideal shoh hayotda, xususan o'sha davrning zulmat ila topilmasligini va bo'lishi ham mumkin emasligini his etadi. "Har bir xalq ilmsizlar va unga bosh bo'lib turgan juda ongsizlardan holi bo'lmaydi. Shunday johil va zolimlarning mavjudligi tufayli zulm va zo'ravonlik kuchayadi, boylikka hirs qo'yiladi" [7, 39], deb qayg'uradi Beruniy.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, shu vaqtga qadar ilmiy jamoatchilik, Sharq, jumladan, O'rta Osiyo halqlari madaniy merosining tarkibiy qismi bo'lgan diniy va dunyoviy qarashlarni, mutafakkirlarining insoniyat haqidagi g'oyalarini hayol, utopiya, noreal qarashlar tizimi sifatida talqin qilib keldilar. Lekin Sharq mutafakkirlarining jamiyat, uning sohalari va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi qarashlari asosan aql, tafakkur va uning kuch-qudratiga bo'lgan ishonch tashkil qiladi va shu bilan birgalikda o'zlari orzu qilgan "mukammal jamiyat" qurilishini mavjud konkret ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish bilan bayon qiladilar. Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida ham insonning qiyofasi tabiat ta'sirining natijasi ekani, uning ichki qiyofasida cheksiz say-harakatlar natijasida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi aytiladi. Har bir inson o'z xulq-atvorining egasi ekanligi hamda jamiyat bosqichma-bosqich o'zgarishlar orqali rivojlanib borilishi ta'kidlanadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. 2. Т.: „Ўзбекистон“, 2018. 191-бет.
2. Президент Ш.М. Мирзиёевнинг 2016 йилнинг 18-19 октябрь кунлари Тошкентдаги Симпозиумлар саройида "Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик йўли" мавзuida бўлиб ўтган Ислom ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг Ташки ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2016 йил, 19 октябрь.
3. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Ҳиндистон. Арабчадан А.Расулов, Ю.Ҳакимжонов, Ғ.Жалолов таржимаси. Сўз боши ва изоҳлар А.Ирисов. – Т.: Фан, 1965. 88-бет
4. Мунинов И.И. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (IX-XX асрнинг бошларига). – Т.: Фан, 1999. 42-бет.
5. Белинский А. Минерология, 1963. 14-бет.
6. Беруний А.Р. "Китоб ал- жавохир", Хайдаробод, 1936, 30-бет.
7. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар . II-том .379-бет.

Abu Rayhon Beruniyning jamiyat va davlat haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari

Аннотация. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy boy ilmiy merosida jamiyat va davlat haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarga oid pand-nasihatlari bayon etilgan. Uning umuminsoniy, umumiylik xususiyatlarini ochib berish bilan birga har bir mamalakat va xalqning tarixi alohida o'ziga xos ekanligini, shuning uchun ham ularni taqqoslab analiz qilish mumkin ekanligi yoritilib berilgan.

Tayanch so'zlar: jamiyat, davlat, tarix, xalq, hukmdor, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik.

Социально-философские взгляды абу райхана беруни об обществе и государстве

Аннотация: В данной статье в богатом научном наследии Абу Райхана Беруни представлены советы по социально-философским взглядам на общество и государство. Помимо раскрытия ее универсальных, общих черт, подчеркивается, что история каждой страны и народа уникальна, а потому есть возможность их сравнения и анализа.

Ключевые слова: общество, государство, история, народ, правитель, справедливость, патриотизм, гуманизм.

Socio-philosophical views of Abu Rayhan Beruni about society and the state

Annotation: In this article, Abu Rayhan Beruni's rich scholarly legacy offers advice on socio-philosophical views on society and the state. In addition to revealing its universal, common features, it is emphasized that the history of each country and people is unique, and therefore there is an opportunity to compare and analyze them.

Keywords: society, state, history, people, ruler, justice, patriotism, humanism.

АДВОКАТЛАРНИНГ РИЭЛТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ИМКОНИАТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Асқаров Ф.

Ўзбекистон Республикаси Судьялар Олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

Кириш. Бугунги кунда мамлакатимизда қонунчилик ва суд-ҳуқуқ соҳасида жиддий ўзгаришлар ҳамда ислохотлар олиб борилмоқда. Бундай ўзгаришлар замирида албатта аҳолига қулайликлар яратиш, тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, фуқароларни амалга ошириладиган ислохотларга нисбатан ижобий кайфиятни вужуга келтиришдан иборатдир. Ҳуқуқ соҳасида амалга ошириладиган ислохотларни ичида адвокатура ҳамда риэлторлик соҳалари алоҳида ажралиб туради. Бир қарашда адвокатлик фаолияти билан риэлторлик фаолиятини ўртасида катта фарқ бор. Албатта, бу фикрга қўшилмай илож йўқ. Чунки, адвокатлик соҳаси ҳақ эвазига жисмоний ва юридик шахсларга юридик хизмат кўрсатишдан иборат бўлса, риэлторлик соҳасининг тағ замирида ҳақ эвазига тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш ётади.

Бирок, бу икки фаолиятнинг ўзига хос умумий ва ўхшаш жиҳатлари ҳам мавжуд бўлиб, буни инкор қилиш асло мумкин эмас. Мазкур илмий мақола орқали адвокатлик ва риэлторлик фаолиятини ўхшаш жиҳатлари, айнан шундай мазмундаги нормалар, уларнинг хусусиятлари ва қонунчилик тизимидаги ўрнини Ўзбекистон Республикаси фуқаролик-ҳуқуқий нормалари билан солиштиришга ҳаракат қиламиз.

Материал ва методлар. Биринчи навбатда адвокатура фаолиятга эътибор қаратамиз. Ўзбекистон Республикаси Адвокатура тўғрисидаги қонунининг 1-моддасига асосан адвокатура — ҳуқуқий институт бўлиб, у адвокатлик фаолияти билан шуғулланувчи шахслар ҳамда хусусий адвокатлик амалиёти билан шуғулланувчи айрим шахсларнинг мустақил, қўнгилли, касбий бирлашмаларини ўз ичига олади. Адвокатура Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, ажнабий фуқаролар, фуқаролиги бўлмаган шахсларга, қорхоналар, муассасалар, ташкилотларга юридик ёрдам кўрсатади [1].

Бугунги кунда суд ва ҳуқуқ соҳасини адвокатларсиз тасаввур қилиш қийин. Адвокатура институти ҳуқуқ соҳасида етакчиликни қўлга олмақда. Адвокатурани ривожлантириш Конституция даражасига қўтарилди.

Янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг [2] XXIV боби адвокатлик фаолиятига бағишланди. Конституциянинг 141-моддасида жисмоний ва юридик шахсларга малакали юридик ёрдам кўрсатиш учун адвокатура фаолият кўрсатиши, адвокатура фаолияти қонунийлик, мустақиллик ва ўзини ўзи бошқариш принципларига асосланиши, адвокатурани ташкил этиш ва унинг фаолияти тартиби қонун билан белгиланиши кўрсатилган бўлса, 142-моддада адвокат ўз касбий вазифаларини амалга оширадиганда унинг фаолиятига аралашинишга йўл қўйилмаслиги, адвокатга ўз ҳимоясидаги шахс билан монеликсиз ва холи учрашиш, маслаҳатлар бериш учун шарт-шароитлар таъминланиши, адвокат, унинг шаъни, қадр-қиммати ва касбий фаолияти давлат ҳимоясида бўлади ва қонун билан муҳофаза қилиниши белгилаб ўтилди [3]. Содда қилиб айтганда юридик хизмат кўрсатиш ва ҳуқуқий маслаҳатлар бериш бевосита адвокатларни вазифасига қиради. Энди риэлторлик фаолиятига тўхталиб ўтамиз. Ўзбекистон Республикасининг Риэлторлик фаолияти тўғрисидаги ЎРҚ-269-сонли Қонунининг 3-моддасига асосан риэлторлик фаолияти юридик ва жисмоний шахсларнинг қўчмас мулк объектларига ва уларга бўлган ҳуқуқларга доир битимлар тузиш билан боғлиқ хизматларни шартнома асосида кўрсатиш бўйича тадбиркорлик фаолиятидир [4]. Мухтасар айтганда, риэлторлик фаолияти - муҳим ижтимоий маъсулиятли бизнесдир [5]. Қўчмас мулк бозори аҳоли турмуш даражаси ва сифати, шунингдек, барча мулкчилик шаклидаги қорхона ва ташкилотларни ривожлантириш кўрсаткичларини ифода этадиган бозор иқтисодиётининг таркибий қисмларидан биридир.

Берилган тарифдан бир қарашда бу соҳаларни бир-бирига боғлашнинг имкони мавжуд эмас. Лекин, уларнинг ўхшашлик томони мавжуд бўлиб, булар бевосита ҳақ эвазига хизмат кўрсатишдан иборатдир.

Бундан кўриниб турибдики, юқоридаги иккала фаолият ҳам қўчмас мулк билан боғлиқ хизматларни амалга оширади. Адвокатлар томонидан турар ва нотурар жойлар билан боғлиқ олди-сотди, ҳада, текин фойдаланиш (ссуда), ипотека ва шу каби ҳаракатлар расмийлаштирилгандан сўнг вужудга келадиган муаммоларни суд орқали ёхуд медиатив келишув тарзида ҳал қилинса, риэлторлар томонидан эса, қўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар кўрсатилади. 2019 йилдан бошлаб, риэлторлар томонидан юридик ва жисмоний шахсларга тегишли бўлган нотурар қўчмас мулк объектларининг олди-сотди шартномалари, ижара шартномаларини тузишда ҳам риэлторлик хизматлари кўрсатилиши йўлга қўйилган. Бу дегани нотариуслар томонидан нотурар қўчмас мулк билан боғлиқ нотариал ҳаракатлар амалга оширилмайди дегани эмас. Чунки, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига асосан, тарафлардан бирининг талабига қўра битимлар нотариал тасдиқланиши шарт [6]. Адвокатлик ва риэлторлик фаолиятини янада бир-бирига яқинлаштириш мақсадида қонунчиликка ва адабиётларга юзланамиз. Фуқаролик кодексининг 703-моддасида ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш шартномасига қуйидагича таъриф берилган. Ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш шартномаси бўйича

Тогаев Н. Э. Abu Rayhon Beruniyning jamiyat va davlat haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari	254
Аскарлов Ф. Правовые основы возможностей адвокатов осуществлять деятельность в сфере недвижимости	257
Камаров А.Н. Судьялар одобининг конституциявий асослари	259
Базарбаева З.Б. Фуқаролик ишларини суд муҳокамасига тайёрлашнинг ҳуқуқий асослари ва аҳамияти	262
Maksetova M.K. Milliy madaniy miyraslardi tusiniwde simvollar teoriyasiniń ahmiyeti	265
Айтмуратов Ж. «Ағартыўшылық курбанлары» ямаса «Бегжап трагедиясы» ҳаққында тарийхий дереклер	267
Махаммаджанов Ғ. Замонавий жамият қуришда ижтимоий онг трансформациясининг ўзига хос жиҳатлари	271
Шукуров Н.У. Международный опыт борьбы с коррупцией (на примере Сингапура)	274
Мамбетназаров Г. Дж. Қорақалпоғистон маҳаллий кенгашларининг структураси	278
Жаббарбергенов. Т.Р. Организация досуга городской молодежи	281
Саидов Б.А. Жынаят исин судқа дейин алып барыўда шахстың ҳуқықларын тәмийинлеўде халық аралық тәжірийбе	283
Хикматов Ф.Х., Аллаберганова Ф. А. Сиёсий ҳодиса сифатида лоббизм моҳияти	286
Нажимов М.Ш. Шаңараққа ҳам жасларға қарсы жынаятлар түсиниги ҳам олардың жәмийетлик қәўипилиги	289
Торбеков Б. Ички ишлар органларининг давлат ҳоқимияти вакиллик органлари билан ўзаро муносабатларининг ҳуқуқий асослари	293

ФИЛОЛОГИЯ. ЖУРНАЛИСТИКА.

Orazimbetova R.M. Sh.Seyitovtin «Xalqabad» romanı leksikasiniń semantika-stilistikalıq ózgeshelikleri	296
Қдырбаева У. Қаҳарманлық дэстанлар тилинде паронмазия	298
Кененбаев Е.Т. Понятийно-категориальный аппарат интернет-лингвистики в рамках изучения электронного языка	302
Tańirbergenov J., Xojaniyazova M. «Qoblan» dástanı tilinde dawıslı fonemalar	305
Qudaybergenov M. S., Bayımbetova M. B. Inglis hám qaraqalpaq tillerindegi ikonlıq (tulǵalıq) yaki kóriniske eliklewish konceptleri	307
Бекбаўлиев Д. Заманағой баспасөзде интервью жанры	311
Алламбергенова Г.А. Соматикалық фраземалардың стильлик хызметлери	314
Жумамуратова Р. А. Таржимашуносликдаги назарий қарашлар ва таржима вазифалари	316
Бекбергенова А.У. «Ер Зийўар» дэстанында батырдың елди қорғаў мотиви	318
Rasulova N. A. Tez aytishlarning ingliz tili darslaridagi ahamiyati	321
Шамуратов М. Романда Бухара қарақалпақлары өмириниң сүүретлениўи	324
Urazimbetova G.K. Gidronomik toponimlar va frazeologik birliklar	326
Dauletbayev M. Rus tilinde abstrakt atlıqlardıń úyreniliwi	328
Seytova D.U. Semantic space and meanings of terms	331
Палўанов Б. Әдебий-хроникалық очеркте синтез мәселеси	332
Яхияев З. Публицистика ҳам публицистикалық текст	334
Султанова З. Ў. Новербал воситаларнинг маданиятлараро мулоқотдаги мавқеи	337
Арпбаева Н.М. Публицистикалық дискурста жәмийетлик-сиясий лексиканың орны	340
Muxammedova X. E. Jorj Eliot asarlarida ayol muammosi eliotshunoslar talqinida	343
Мухаммедова Н. Мўъжизавий реализм америка адибаси Луиза Эрдрик ижоди мисолида	347
Kalekeev K.J. Baxshishilik va jirovshilik san'atini yoritishda matbuotining o'rni	351

АЛЫМ ЕСТЕЛИГИ

Сулайманов С., Елмуратов И. Қарақалпақ илиминиң сэрқардасы академик Сабыр Камалов 100 жаста	356
Машарипова Т., Каллибекова Г. Көркем әдебият ҳам әдебияттаныў мәселелериниң сәўлелениў өзгешеликлерине арналған илимий мийнет	358